

FORS TILIDA VAQTNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK  
VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Binafsha Abduraimova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Har bir tilda biror bir xalqning madaniyatini aks ettiruvchi barqaror birikmalar mavjud. Ana shunday barqaror birikmalardan biri frazeologizmlardir. Ushbu maqolada fors tilidagi vaqt konseptiga oid ba'zi frazeologizmlar semantik va lingvokulturologik tahlil qilinadi.

**Annotation.** Each language has stable combinations that reflect the culture of a nation. One such stable combination is phraseologisms. In this article, some phraseologisms related to the concept of time in the Persian language are analyzed semantically and linguistically.

**Аннотация.** В каждом языке есть устойчивые сочетания, отражающие культуру нации. Одним из таких устойчивых сочетаний являются фразеологизмы. В данной статье семантически и лингвистически анализируются некоторые фразеологизмы, связанные с понятием времени в персидском языке.

**Tayanch soʻz va iboralar:** turgʻun birikma, frazeologizm, sof ibora, yarim ibora, literal ibora, semantik tahlil, lingvokulturologik tahlil.

Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq soʻzdan tashkil topgan, maʼnoviy jihatdan oʻzaro bogʻliq soʻz birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha koʻchma maʼnoda qoʻllaniladigan turgʻun birikmalardir. Koʻp hollarda frazeologizmlarni tildan tilga soʻzma soʻz tarjima qilib boʻlmaydi. Tillarning farzeologik qatlami juda qiziqarli material boʻlib, unda "til-madaniyat-etnos" ning kesishmasi aks etadi.<sup>40</sup> Chitra Fernando frazeologizmlarni uch sinfga, sof, yarim va literal iboralarga ajratadi.<sup>41</sup> Quyida fors tilidagi vaqt konseptiga oid ba'zi iboralarni ushbu yondashuv boʻyicha tahlil qilinadi.

1. *Sof iboralar (pure idioms).* Bunday iboralar maʼnosi butunlay oʻzgargan soʻz birikmalaridir. Ularning maʼnolari tarkibiy qismlarning maʼnolaridan anglashilmaydi. Masalan, **تا خوروس خان/از خوروس خان** [tā xorus xān/ az xorus xān]. Xorus "xo'roz", xān "kuylamoq" soʻzlarning asl maʼnolari boʻlsa, bu soʻzlar birgalikda "tongacha"/ "erta tongdan" degan koʻchma maʼnolarda ishlatiladi.

**تا بوق سگ** [tā buq-e sag] ushbu iboraning tahliliga qaraydigan boʻlsak, **تا** tā -gacha, **بوق** buq - shox, **سگ** sag - it degan maʼnolarni ifodalasada, "itning shoxigacha" degan maʼnoda ishlatilmaydi. Metaforaga uchagan holatda "to kechgacha" deb talqin qilinadi.

<sup>40</sup> "Фразеологическая система современного персидского языка и принципы составления Фарси-русского словаря" тема диссертатсия и автореферата по ВАК РФ 10.02.22, доктор филологических наук Голева, Галина Сергеевна

<sup>41</sup> Persian idioms. Collection and identification in texts. Vahid Ostovar. Dissertation on master project in Language Sciences, 2014.

شب دراز است و قلندر بیدار [šab derāz ast va qalandar bidār] – “tun uzoq va qalandar hushyor”. šab derāz ast vaqtning uzoqligini ifodalasa, qalandar donishmand, so‘fiy, pok, ulug‘ insonni anglatadi. Ya‘ni ushbu iboradan “shoshilma va sabrli bo‘l” degan ma‘no anglashiladi.<sup>42</sup>

شوهر به او گفت: ای زن، این قدر عجله نکن. شب دراز است و قلندر بیدار!<sup>43</sup>

[šouharaš be u goft: ey zan, in yadr ajalle nakon. Šab derāz ast va qalandar bidār.]

“Turmush o‘rtog‘i unga aytdi: Hoy xotin, bunchalik shoshilma. Shoshilma va sabrli bo‘l!”

2. Yarim iboralar (semi-idioms). Bunday frazeologik birliklarning komponentlaridan biri o‘zining to‘g‘ri ma‘nosida qolganlari metaforik ma‘noda qo‘llaniladi. Misol uchun bunday birliklarga تا لنگ ظهر [tā leng-e zoxr] birikmasini keltirishimiz mumkin. Ushbu turg‘un birikmadan so‘zma so‘z “tushning oyog‘igacha” degan birikma kelib chiqadi. Tā “...gacha”, leng “oyoq”, zoxr “tush payti” ma‘nolarini ifodalaydi. Ammo fors tilida bunday mantiqsiz ibora emas, ushbu so‘zlar ishtirokidagi “to tushgacha” iborasi qo‘llaniladi. Asosan خوابیدن [xābīdan] – uxlamog‘ fe‘li bilan keladi va ma‘noni bo‘rttirish uchun ishlatiladi.

بچش هر روز تا لنگ ظهر می خوابد.<sup>44</sup>

[Baččaš har ruz tā leng-e zoxr mixābad.]

"Uning bolalari har kuni tushgacha uxlaydi."

كله سحر [kalle-ye saxar]. Kalle “bosh, kalla”, sahar “tong, sahar” ma‘nolarini ifodalasada bu birikma “saharlab”, “erta tongdan” degan tushunchalar uchun ishlatiladi. Ko‘pincha uyg‘onish, o‘rnidan turish atamaları bilan qo‘llaniladi.

باید کله سحر بیدار شوم.<sup>45</sup>

[bāyad kale-ye saxar bidār šavam.]

Erta tongdan turishim kerak.

ناف شب [nāf-e šab]. So‘zma so‘z ناف - kindik, شب - tun bo‘lsa-da “tunning kindigi” emas, “yarim tun” degan ma‘noni ifodalaydi.

ناف روز [nāf-e ruz]. Ushbu ibora esa tush paytigina nisbatan ishlatiladi.

3. Literal iboralar sinfi esa o‘zgarma deb qaraladi. Ya‘ni ular tarkibiy qismlari asosida talqin qilinadi. Ularning ma‘nosi tarkibidagi so‘zlarning ma‘nosidan anglashiladi va eshituvchi uchun mujmallik tug‘dirmaydi.

عمر نخ نداشتن [omr-e nox nadoštan]. So‘zma so‘z “Nuhning umriga ega bo‘lmaslik” deb talqin qilinadi. Ahli kitoblar uchun ma‘lumki Nuh alayhissalom 900 yil umr ko‘rgan. Shu ma‘lumotdan anglashiladiki, bu turg‘un birikma “Nuhning umriga ega bo‘lmaslik”, “uzoq umr ko‘rmaslik” degan to‘g‘ri ma‘noda keladi.

نامزد دوازدهمین دوره انتخابات ریاست جمهوری با بیان اینکه بجای شعار و حرف باید عمل کرد، گفت:

جناب آقای روحانی این مردم نه صبر ایوب دارند و نه عمر نوح.<sup>46</sup>

<sup>42</sup> <https://www.daneshchi.ir>

<sup>43</sup> <https://www.setare.com>

<sup>44</sup> <https://www.mypersiancorner.com>

<sup>45</sup> <https://www.mypersian.com>

<sup>46</sup> <https://www.mehrnews.com>

[Nāmzad-e do az dahomin doure-ye entxābāt-e reyāsāt-e jomhuri bā beyān-e inke bejāye šēār va harf bāyad amal kard, goft: Janāb āyā-ye Ruxoniy in mardom na sabr-e Ayyub dārand va na omr-e Nux.]

“ O‘n ikkinchi nomzod Respublika prezidentligi saylovi arafasida shior va nutq so‘zlashning o‘rniga harakat qilish kerakligini bayon qilib, aytdi: janob Ruxoniy, bu odamlar Ayyubning sabriga va Nuhning umriga ega emas” . Ushbu misolda ham insonlar Nuh alayhissalomdek uzoq umr ko‘rmasligiga ishora qilinyapti.

**روز وانفسا** [ruz-e vānafsa]. So‘zma so‘z “afsus kuni” deb tarjima qilinadi. Dehxudo izohli lug‘atiga ko‘ra, har kim faqat o‘zi haqida o‘ylaydigan kun, ya‘ni “qiyomat kuni” degan ma‘noni bildiradi.<sup>47</sup>

**چشم بر هم زدن** [čāšm bar ham zadan] so‘zma so‘z “ko‘z ochib yumguncha” deb istilohda ishlatiladi va shu ma‘noda, ko‘z ochib yumgunchalik qisqa vaqtini ifodalashda ishlatiladi.

...در چشم بر هم زدنی روزها می گذشت

[...dar čāšm bar ham zadani ruzhā migozašt]

...ko‘z ochib yumguncha kunlar o‘tdi.<sup>48</sup> ushbu misolga diqqat qiladigan bo‘lsak keltirilga ibora vaqtning tez o‘tib ketganligiga ishora qilyapti.

**روز تنگ** [ruz-e tang] – baxtsiz kun.

**روز بزرگ** [ruz-e bozorg]. “Bozorg” “katta, ulug‘” degan ma‘noni ifodalaydi, ikki so‘z birgalikda “qiyomat kuni”, “ulug‘kun”ni ifodalash uchun ishlatiladi.

يقوب گفت: ای فرزندان بسیار ستم کردید و زندگانی مرا ببردید، من تا روز بزرگ باندۀ یوسف اندر ماندم.<sup>49</sup>

[Yayub goft: ey farzandān besyār setam kardid va zendegān-e marā bebordid, man tā ruz-e bozorgbā anduh-e Yusuf andar māndam.]

“Yoqub aytdi: ey farzandlar, ko‘p ozor keltirdingiz va mening hayotimni barbod qildingiz, men to qiyomatgacha Yusufning qayg‘usi bilan qolaman.” “Tafsiri Tabariy” dagi Yusuf surasining tafsiriga oid ushbu jumlada farzandidan ayrilgan otaning bitmas qayg‘usi qiyomat kunigacha davom etishi haqida so‘z ketmoqda.

من فقط به شرح یکی از این پیشامدها میپردازم که برای خود

اتفاق افتاده و به قدری مرا تکان داده که هرگز فراموش نخواهم کرد، و نشان شوم آن – تا زندهام، از روز

ازل تا ابد آنجا که خارج از فهم و ادراک بشر است – زندگی مرا زهر آلود خواهد کرد.<sup>50</sup>

[man faqat be šarx-e yeki az in pišāmadhā mi mi pardāzam ke barāye xod ruz-e azal tā abad ānjā ke axārej az fahm u edrāk-e bašarast – zendeği-ye marā zaharālud xāhad kard.]

“Men faqat men bilan sodir bo‘lgan va men hech qachon unutmaydigan darajada ta’sirlantirgan voqealardan birini tasvirlab beraman, va uni insoniyatning aqliga sig‘dira olmaydigan ibtido kundan abadiyatgacha mening hayotimni zaharga aylantirdi deb ko‘rsataman.”

<sup>47</sup> <https://www.vojeyab.com>

<sup>48</sup> رعناشکوهی ستا ۱۳۵۶. عترت نو. “روزنگار من در عصر فناوری”،

<sup>49</sup> ترجمه تفسیر طبری. سوره یوسف.

<sup>50</sup> www.irantarikh.com. "یوف کور". صادق هدایت. نسخه چاپخانه سپهر، تهران، بهمن ماه ۱۳۵۱

Bu yerdagi روز ازل [ruz-e azal] va روز ابد [ruz-e abad] soʻzlari ham ayanan vaqt konseptining misoli boʻlib, Moʻin izohli lugʻatida روز ازل [ruz-e azal] ga "zamon boshlangan kun" deb izoh beriladi

تنگ سال [tangsal]. سال va تنگ soʻzlarining tarjimalari bilan yuqorida tanishib oʻtdik. Semantik maʼnosiga koʻra ushbu birlik "qurgʻoqchilik davri" ni ifodalash uchun ishlatiladi.

درویش ضعیف حال را در خشکی تنگ سال می‌پرس،

که چونی، الا به شرط آن که مرهم ریشش بنهی و معلومی پیشش.<sup>51</sup>

[darveš-e zaif hol rā dar xoški-ye tangsāl mapors ke čuni, Illo be šart-e ān ke marham-e rišāš benahi va maʼlumi pišāš]

"Nochor darveshdan qurgʻoqchilik paytida ahvolini soʻrama, chunki shunchaki uning soqoliga malham surib qoʻysang nima boʻlgani maʼlum boʻladi."

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, frazeologizmlar xalq madaniyati va dunyoqarashini oʻzida aks ettiradi. Yuqoridagi vaqt tushunchasi ostidagi frazeologizmlar tahlili orqali frazeologiya semantika va lingvokulturologiya fanlari bilan ham bevosita aloqadorligi aniqlandi.

<sup>51</sup> <https://www.shernoosh.ir>